

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



Rektor: **I. Ixtasinov**

2025-yil "28" avgust

Ro'yhatga o'linadi: **BD60230100-O-KTUR2305**

2025-yil "28" avgust

O'LKASHUNOSLIK VA TURIZM
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	–	San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000	–	Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100	–	Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

Toshkent-2025

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
O'KTUR2305	2025-2026	3	5
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari
Tanlov	ingliz		4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. O'lkashunoslik va turizm	60	90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda yurtimizning geografik joylashuvi, iqlimi, aholisi va asrlar davomida bunyod etilgan durdona me'moriy obidalarimizning tarixi, shuningdek go'zal va nafis san'at asarlari orqali ilmiy, nazariy bilimlarni shakllantirish; O'zbekistonning turizm salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lami ishlarni o'rganish. Turizm sohasi vakillari ichki turizm salohiyatini oshirish va xorijiy sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish, mamlakatimiz hududlaridagi turizm infratuzilmasini o'rganish.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga yurtimiz tarixi, joylashuvi, madaniyati va yurtimizda joylashgan tarixiy me'moriy obidalar haqida ma'lumot berish. Turistik qadamlar va majmualar tarixi, me'morchilik uslubi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi</p> <p>Mazkur fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 87-sonli buyrug'iga muvofiq, xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi University of Surrey ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi.</p> <p>https://www.surrey.ac.uk/undergraduate/international-hospitality-and-tourism-management</p> <p>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</p> <p>II. 1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>3-semestr</p> <p>Lesson 1. Geographical location, territorial division of the republic of Uzbekistan. Climate and touristic features of the republic of Uzbekistan</p> <p>Lesson 2. Development of ecotourism in Uzbekistan. Effective use of</p>		

ecotourism opportunities and resources.

Lesson 3. Tourism resources in rural and urban areas of Uzbekistan.

Lesson 4. Ziarat tourism in Uzbekistan. History and touristic sites, ziarat tourism (Samarkand).

Lesson 5. History and touristic sites, ziarat tourism (Bukhara and Navoi).

Lesson 6. History and touristic sites (Khorezm and the republic of Karakalpakistan)

Lesson 7. History and touristic sites (Surkhandarya and Kashkadarya)

Lesson 8. Project work

Lesson 9. History and touristic sites (Fergana valley)

Lesson 10. History and touristic sites (Tashkent, Syrdarya, Jizzakh)

Lesson 11. Identity and social lifestyle (regional). Language and dialects

Lesson 12. Traditions of Uzbekistan (Regional differences and similarities)

Lesson 13. Holidays and festivals of Uzbekistan. Folklore and music of Uzbekistan.

Lesson 14. National products and Uzbek brands

Lesson 15. Sport as a means of the development of tourism

Lesson 16. Project work

Lesson 17. Uzbekistan's role in the world community and international relations

Lesson 18. Tourism policy: facts, attitudes and behaviours. Touristic excursion services

Lesson 19. Hotel industry: types, requirements and services

Lesson 20. Gastronomy and Tourism

Lesson 21. Table ethics (national, regional)

Lesson 22. Industry of travel agencies. Transportations. Logistics

Lesson 23. Types of interpreting services

Lesson 24. Project work

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mashg'ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

- amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;

- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliiliy ma'lumot (esse) tayyorlash;

- badiiy-ijodiy ishini bajarish;

- aniq mavzu bo'yicha tahliiliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;

- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlab ko'nikmasini shakllantirish;

- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

3-semestr

1. Education system of the republic of Uzbekistan.

2. Amir Temur and the period of the Temurids.

3. The division of Turkestan into khanates.

4. Occupation of Turkestan by Tsarist Russia.

5. Types of tourism and tourist resources.

6. Climate and touristic features of the republic of Uzbekistan.

7. The resources for the development of ecotourism.

8. Ziarat tourism in Uzbekistan.

9. Definition of Ziarat tourism destination.

9. Taqrizchilar:

Sh.Usmonova - O'zDJTU, Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasini mudiri
Sh.Sultonova - ToshDO'TAU Xorijiy tillar kafedrasini dotsenti

Ingliz filologiyasi
fakulteti dekani

Y.Azzamov

Ingliz tili amaliy aspektlari
kafedrasini mudiri

Sh.Usmonova

Universitet axborot resurs
markazi direktori

S.Kayumova

<p>1. Iskandarova D, Boymurodova F. (2024) Regional studies and tourism Gaybullayeva D. (2021) Regional studies.</p> <p>2. Byrnes M, Karch, Marian, Khasilova D, Kingsland William, Moro Joshua. (2022) Tourism English for Uzbekistan.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Chris Cooper. (2006) Tourism: Principles and Practice.– Financial Times Management. – 810 p.</p> <p>2. Fevzi Okumus. (2010) Strategic Management for Hospitality and Tourism. – Taylor Francis. – 349 p.</p> <p>3. Jurakhonovich, K. S. (Apr -jun 2020). Pilgrimage Tourism in Uzbekistan; Problems at Solutions. Social Sciences and Humanities, Uzbekistan.</p> <p>4. O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar. Mualliflar jamoasi. T.: O'zbekiston, 2011. - 559 b.</p> <p>5. Pugachenkova G. Vııdayumıesya pamyatniki arxitektury Uzbekistana. -Toshkent: GIXL, 1958. - 246 b.</p> <p>6. Rustamovich, D. B. (2020). Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan. Journal of International Business Research and Marketing (p. Uzbekistan). Tashkent: September, 2020.</p> <p>7. Stephen J. Page. Tourism Management: An Introduction. - Elsevier Science & Technology Books, 2011. – 382 p.</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>1. https://www.surrey.ac.uk/undergraduate/international-hospitality-and-tourism-management</p> <p>2. www.uzbektourism.uz</p> <p>3. www.advantour.com https://uzbekistan.travel</p>	<p>7. O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil <u>4</u> - <u>iyun</u> dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (<u>10</u> - sonli bayonoma).</p> <p>8. Fan/modul uchun mas'ullar: D.Iskandarova – O'zDJTU, Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrası o'qituvchisi F. Boymurodova – O'zDJTU, Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrası katta o'qituvchisi</p>
--	---

<p>10. Ziarat tourism transport.</p> <p>11. The difference between ziarat tourism and other tourism.</p> <p>12. Ziaarat tourism accommodation.</p> <p>13. History of the study of shrines in Uzbekistan.</p> <p>14. History and touristic sites, ziarat tourism (Samarkand).</p> <p>15. Imam Bukhari Memorial complex.</p> <p>16. "Gori Amir" complex.</p> <p>17. History and touristic sites, ziarat tourism (Bukhara and Navoi).</p> <p>18. Ark castle, Chor Minor complex.</p> <p>19. Poyi Kalon architectural complex.</p> <p>20. History and touristic sites (Khorezm and the republic of Karakalpakistan).</p> <p>21. Shrine of Sofi Alloyar.</p> <p>22. Complex of Ichangala monuments.</p> <p>23. History and touristic sites (Surkhandarya and Kashkadarya).</p> <p>24. Hakim Termizi complex.</p> <p>25. Abu Isa Termizi complex.</p> <p>26. History of the Oqsaroy in Shahrisabz.</p> <p>27. History and touristic sites (Fergana valley, Tashkent, Syrdarya, Jizzakh).</p> <p>28. History of Hastimom complex.</p> <p>29. Zangiota complex.</p> <p>30. Holidays and festivals of Uzbekistan.</p> <p>31. Guiding.</p> <p>32. Hotel industry: services.</p> <p>33. Uzbekistan's role in the world community and international relations.</p> <p>34. Identity and social lifestyle (regional).</p> <p>35. Effective use of ecotourism opportunities in Uzbekistan.</p> <p>36. Tourism resources in rural and urban areas of Uzbekistan.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar o'quv dasturida tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>3.</p> <p>V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yurtimiz tarixi geografik joylashuvi, iqlimi, madaniyati va aholisi haqida bilimga egabo'lish; - Yurtimizda turizm sohasi rivojida me'moriy obidalarimizning ahamiyati naqadar beqiyos ekanligini anglash;
--	---

<ul style="list-style-type: none"> - Me'morchilik uslublari haqida bilimga ega bo'lish; - Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib talabalarda nafaqat madaniy sohalar balki turizm bo'yicha ham ma'lum darajada ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak - turizm to'g'risida yetarli darajada nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi; (bilim) - O'zbekiston va turizm tarixi va nazariyasi to'g'risida keng bilimni egallay olish; - O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda turizm to'g'risida nashr qilingan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash; - O'zbekistonda joylashgan turistik majmualar haqida ma'lumotga ega bo'lish; - Turizm masalalarini tushuna olish amaliy ko'nikmalarni egallashi; (ko'nikma) - Ichki turizm amaliyotida nazariy bilimlarni qo'llash; - Ichki turizm bo'yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtayi nazardan yondashish; - Ichki turizmdaro'y berayotgan jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtayi-nazaridan tahlil qilish; - Ichki turizmining umumiy va xususiy belgilari haqidagi tushunchalarni amaliyotda qo'llash malakalarini egallashi (malaka) lozim. 	<p>4.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • BBB • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruh, mikroguruh bo'lib ishlash; • aqliy hujum; • muammoli vaziyat; • Keys-stadilar; • Hayoliy xarita; • interfaol suhbat; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalalar; • jamoa bo'lib ishlash.
<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga</p>	

<p>kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.</p> <p>Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.</p>	<p>Talabalar bilimni baholash mezonlari:</p> <p>5 (a'lo) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.</p> <p>4 (yaxshi) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.</p> <p>3 (qoniqarli) baho – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.</p> <p>2 (qoniqarsiz) baho – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.</p>
---	---